



STAGES OF DEVELOPMENT OF INTERGENERATION RELATIONS IN CHRISTIAN RELIGION

Dilfuza Mirzakhonova

Base doctorate

*International Islamic Academy of Uzbekistan
Uzbekistan, Tashkent*

ABOUT ARTICLE

Key words: the problem of generations, church generations, Generation of difficulties, Baby Boomers, Generation-X, Generation Millennium, Worship, preaching, evangelization, appearance, Acts of the Holy Apostles, "Nicomachean Ethics."

Received: 18.01.25

Accepted: 20.01.25

Published: 22.01.25

Abstract: Problems between and between generations are based on the fact that they have a deep history. This phrase "generation problem" refers to the relationship between elders and younger ones, and the mistakes and shortcomings that can be made in the ability to compromise with each other.

XRISTIANLIK DINIDA AVLODLARARO MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Dilfuza Mirzaxonova

tayanch doktorant

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
O'zbekiston, Toshkent*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: avlodlar muammosi, cherkov avlodlari, Qiyinchiliklar avlod, Baby Boomerlar Avlod, X-Avlod, Ming Yillik Avlod, ibodat, va'z qilish, injillashtirish, tashqi ko'rinish, "Havoriylar kitobi", Havoriy Pavlus, "Nikomax etikasi" asari.

Annotatsiya: Avlodlar va ular o'rtasidagi muammolar chuqur ildizli tarixga egaligi bilan asoslanadi. Ushbu ibora ya'ni "avlodlar muammosi" – bu katta-kichik o'rtasidagi munosabatlар va bir-biri bilan murosa qila olishdagi yo'l qo'yiladigan xato-kamchiliklar nazarda tutiladi.

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ МЕЖПОКОЛЕНЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В ХРИСТИАНСТВЕ

Дильфуза Мирзахонова

Базовый докторант

*Международной исламской академии Узбекистана
Узбекистан, Ташкент*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: проблема поколений, поколение Церкви, поколение невзгод, поколение бэби-бумеров, поколение X, поколение миллениалов, молитва, проповедь, евангелизация, внешний вид, книга апостолов, апостол Павел, работа “Этика Никомах”.

Аннотация: Поколения и проблемы между ними основаны на наличии глубоко укоренившейся истории. Эта фраза, “проблема поколений”, относится к отношениям между большими и маленькими и допустимым ошибкам в способности идти на компромисс друг с другом.

KIRISH

Avlodlar va ular o‘rtasidagi muammolar chuqur ildizli tarixga egaligi bilan asoslanadi. Ushbu ibora ya’ni “avlodlar muammosi” – bu katta-kichik o‘rtasidagi munosabatlar va bir-biri bilan murosa qila olishdagi yo‘l qo‘yiladigan xato-kamchiliklar nazarda tutiladi. Avlodlararo nizolarni o‘rgangan turli davrlarda yashab o‘tgan tadqiqotchilarning fikricha, ziddiyatlarning doimiy mavjudligi ko‘pincha ijtimoiy foydali o‘sishga olib kelishi haqida xulosa qilganlar.

Qadimgi davrlardanoq olimlar avlodlarning insoniyat tamadduni, jamiyat va davlat taraqqiyotida tutgan o‘rni to‘g‘risidagi savollarga javob izlab kelishgan. Hozirgi zamonda avlodlar o‘rtasidagi munosabatlar muammosini o‘rganish davomida bizning oldimizda quyidagi savol paydo bo‘ldiki, unga javob bermay turib, eksperimental tadqiqotni to‘g‘ri tashkil etish mumkin emas.

ASOSIY QISM

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Turli avlod vakillariga doir ma’naviy meros va unga avlodlararo munosabat M.Bekmurodov, Q.Nazarov, J.To‘lanov, O.Fayzullayev tadqiqotlarida o‘rganilgan. Shuningdek, Sh.Sodiqova tomonidan, avlodlararo vorislikni ta’minlashda qariyalarning o‘rniga bag‘ishlangan tadqiqot, avlodlar almashinuvni yangi sotsiomadaniy qadriyatlar shakllanishining omili sifatida S.Kalonova tomonidan o‘rganilgan. Shuningdek, M.Qahhorovaning “Vorislik – xulq-odob qadriyatlarini shakllantirishning muhim omili” nomli dissertatsiyasi avlodlararo vorisiylik muammosini ilmiy jihatdan tadqiq etishga bag‘ishlangan.

Psixolog olimlardan V.M.Karimova, B.R.Qodirov, G.B.Shoumarov, M.X.Karamyan, K.B.Qodirov tadqiqotlarida qadriyatlar hamda oilaviy qadriyatlarning ijtimoiy-psixologik omillari ko‘rsatib o‘tilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi olimlaridan A.V.Gavrilova, I.P.Dyachenko, Ye.P.Isayeva, V.I.Pishik, V.V.Semenovalarning tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

“Avlod” tushunchasini nazariy jihatdan tadqiq qilish horij olimlarida K.Mangeym, T.Parsons, X.Ortega-i-Gasset, W.Strauss, N.Howe va boshqalar tomonidan olib borilgan. Ushbu

olimlarning ilmiy tadqiqotlari mazkur tushunchaning mohiyatini va xususiyatlarini tushunishga xizmat qilgan.

Tadqiqot ishlariga oid ba’zi ishlar rus olimlari M.B.Glotov, Yu.I.Kalinovskiy, yurtimiz olimlari G.B.Abdukarimova, R.Sh.Umarova, E.A.To‘xtaboyevlar tomonidan amalga oshirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida diniy-falsafiy ta’limotlar va manbalar tahlili, qiyosiy-tarixiy, tipologik, germenevtik hamda adabiyotlarni kompleks tahlil etish usullaridan foydalanildi.

XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod qilgan rus yozuvchisi Ivan Sergeyevich Turgenev (1818-1883) o‘zining “Otalar va bolalar” («Отецы и дети») romani ham aynan avlodlar to‘qnashuvi [1:49] va ular bilan bog‘liq muammolar, ularga yechimlarga avlodlar bag‘ishlangan bo‘lib, muallif shu bilan birga o‘sha davrdagi ziddiyatlarni ham o‘z asari qahramonlari misolida ochib bergen. Ga’rb tadqiqotchilarining fikricha, insonning yashagan davri uning milliy va ma’naviy qadriyatlar tizimida aks etadi. Bu qadriyatlar zanjiri insonga hayoti davomida nima yaxshi-yu nima yomon, nima to‘g‘ri nima noto‘g‘ri kabi me’yor va mezonlarni aniqlashga yordam beradi. Inson o’n yoshga to‘lgach, unda qadriyatlar tizimi va axloqiy dunyoqarashi shakllanadi. Bu uning hayoti davomida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xristianlik e’tiqodiga ko‘ra inson cho‘qintirilgach, [2:14] u butunlay yangi dunyoqarashga ega shaxsga aylanadi va Muqaddas Ruh inoyatiga erishadi. Ammo inson hayoti davomida o‘zining salbiy sifatlari ustida ishlab, ularni isloh qilishi talab etiladi. Shuning uchun ham avlodlar muammosi cherkov uchun ham muhim masala hisoblanadi. Hozirgi kunda zamonaviy cherkovlar to‘rtta avlod vakillarini tashkil etadi va ularni bir maqsad ostida birlashtirib turadi.

Cherkov avlodlari

Qiyinchiliklar avlodi (Поколение трудностей). 1930-1940-yillarda tug‘ilganlar qiyinchiliklar avlodini tashkil etadi. Chunki ular urush va urushdan keyingi tiklanish davridagi barcha qiyinchiliklarga guvoh bo‘lishdi. O‘sha davrlarda ular omon qolishlari uchun qat’iy intizom, majburiy og‘ir mehnat va fidoyilik zarur edi. Shuning uchun bu avlod vakillari tinchlik va barqarorlikni qadrlaydilar. Isrofgarchilik va dabdababozlikni qoralaydilar. Ular cherkovga alohida ehtirom ko‘rsatib, taqvodor va xudojo‘yligi bilan boshqalardan ajralib turadilar.

Baby Boomerlar Avlodi (Поколение Baby Boomers). Bu 50-60 yillarda jamiyatni qayta tiklash va isloh qilishning turg‘un davrida tug‘ilgan avlod. Bu iqtisodiy o‘sish va kosmosni zabt etish davri edi. Ushbu idealistik davrlarda tug‘ilganlardan kuchli rahbarlar chiqishi ham bejiz emas. Amerikada bu avlod Baby Boomers deb ataladi. Bu odamlar g‘ayratli va intiluvchanligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, 60-yillarda hukm surgan axloqsizlik va madaniyatning sustlashuvi cherkov hayotiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Hozirgi vaqtda cherkovda bu avlod

vakillari faolligi va samarali faoliyati bilan ko‘p joylarda mega cherkovlarni qurish ishlariga jonbozlik ko‘rsatib kelmoqda.

X Avlod (Поколение X). Bu avlod 70-80-yillar avlodni bo‘lib, ularning aksariyati oldingi avlod bo‘linishining davomchilaridir. Ushbu avlod vakillari keksa avlod fikrlari, hayot tajribasi va faoliyatini salbiy baholab, o‘zboshimchalik va mustaqil xatti-harakatni ma’qul ko‘radilar. Yangiliklar va o‘zgarishlarni xush ko‘radilar. O‘zlarining mustaqil fikr va dunyoqarashga egaligi bilan ajralib turadilar. Shuning uchun bu avlod vakillari cherkov xizmatlarining yangi shakllarini joriy qilib, yangi kichik guruuhlar tashkil etishga va o‘zgartirishlar kiritishga intiladilar.

Ming Yillik Avlod (Поколение Миллениум). Bu avlod 1990-2000 yillarda tug‘ilgan. Ular o‘zlarining ma’nan yetukligi va yuksak salohiyati bilan avvalgi avlod vakillaridan ajralib turadilar. Bu avlod jadal rivojlanib borayotgan texnika va texnologiyalar davri ta’siri va terrorizm, ekstremizm, noan’anaviy madaniyat kabi jamiyatga xavf solayotgan bosimlar ostida o‘sgan avloddir. Bu avlod yoshligidanoq cherkov hayotida o‘zining faolligi va xizmatga ishtiyoqi baland bo‘lishi bilan ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytganda, cherkov hayoti va faoliyatida barcha avlodlar o‘zlarining turli fikrlari va dunyoqarashlariga egadirlar. Shuning uchun ba’zan turli avlodlar o‘rtasida ziddiyatli farqlar seziladi. Katta avlod fikriga ko‘ra, ushbu qarama-qarshi farqlar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Ibodat (Богослужение). Ibodat qilish shakli va tartibi turli avlodlar o‘rtasida o‘zarо farqlanadi. Masalan, keksa avlod cherkov ibodat madhiyalarini fortapiro yoki pianino jo‘rligida kuylashni istasa, yosh avlod esa elektro gitara, klaviaturali va zarbli asboblar yordamida ibodat madhiyalarini ijro etishni ma’qul ko‘radilar, ular madhlarida rok, jazz ritm va elementlaridan foydalanadilar. Yosh avlod cherkov xizmatlarida ko‘pincha jamoaviy ijro madhlarini, keksa avlod esa xor qo‘shiqlarini kuylashni xush ko‘radilar. Yosh avlod non va vino (sharob) totish marosimida (Причастие) [3:71] sharob uchun stakanlardan foydalanishni xohlaydi, keksa avlod esa an’anaviy idishlardan foydalanishni qo‘llab-quvvatlaydi.

2. *Va’z qilish (Проповедь).* Keksa avlod gomiletika (yunoncha “suhbat, muloqot, uchrashuv”) cherkov targ‘iboti qoidalariga ko‘ra uch qismdan iborat an’anaviy va’z qilish uslubini afzal ko‘radi, yosh avlod esa ko‘proq amaliy va’z uslublari: hayotiy misollar, hazil mutoyibalar va hikoyalarni o‘z ichiga olgan usullardan keng foydalanadilar.

3. Injillashtirish (Евангелизм) Amerikadagi keksa avlod vakillari Xushxabar (Евангелизм) masalasida talaygina yangiliklardan bexabar edilar. Chunki ingliz tilini mukammal bilmaganliklari sabab, xristianlikni tarqatishda muammolarga duch keldilar. Yosh avlod esa tilni yaxshi bilardilar, ammo yetarli malaka va tajribaga ega emasdilar. Injillashtirish masalalarida yosh avlod ko‘pincha keksa avlod uchun noan’anaviy shakllarni tanlaydi, masalan, injillashtirilgan velosiped safari, injillashtirilgan futbol va boshqalar.

4. *Tashqi ko‘rinish* (*Внешний вид*) Tashqi ko‘rinish masalasi avlodlar o‘rtasida doim bahsmunozaralarga sabab bo‘lib kelayotgan dolzARB mavzu bo‘lib kelgan. Slavyan cherkovlari [4:93] yoshlari tashqi ko‘rinish tanlashda ko‘p qarama-qarshiliklarga uchraydilar. Keksa avlod nasroniyatlari uchun yoshlarning bosh kiyimsiz cherkovga kirishlari, noan’anaviy kiyimlar, ortiqcha zeb-u ziynat taqish, pardoz-andoz qilish va soch bo‘yash tanqidiy munosabatga sabab bo‘lmoqda. Ajablanarli tomoni shuki, bu holatlar ba’zan yigitlarda ham kuzatilmogda.

Yosh avlodning fikriga ko‘ra, katta avlod va kichik avlod o‘rtasida quyidagi jabhalarda tafovut va ziddiyatlar mavjud:

1. Keksa avlod vakillari yosh avlodning gapini inobatga olmaydilar. Bu eng keng tarqalgan muammolardan biridir. Cherkovning keksa avlod vakillari ko‘pincha yoshlari bilan muloqot qilishda turli muammolarga duch keladilar. Masalan, cherkovning keksa a’zolari yoshlari bilan o‘zaro tajriba almashish, tavsiyalar berish va ibodatlarni birgalikda amalga oshirishni istaydilar. Bu tashabbusni yosh avlod a’zolaridan kutadilar ammo muammo ham shundaki, ular keksa avlod vakillari bilan munosabatlari uzviy emas. Shunday bo‘lsada, keksa avlod vakillari ularga amaliy ko‘mak berishga doimo tayyorlar.

2. Keksa avlod ingliz tili muammosini hal qilishni xohlamaydi. Amerikada o‘sgran nasroniyarlarning yosh avlodini uchun ingliz tili ona tilidir. Binobarin, ular uni va’z qilish va qo‘schiq aytishda xizmatlarda ishlatishni xohlashadi, ammo keksa avlod uchun bu masala juda og‘riqli, chunki u rus madaniyati va tilini saqlab qolishga intiladi. Ehtimol, bu vaziyatda chiqish yo‘li cherkovda ingliz tilida so‘zlashadigan guruhni shakllantirish bo‘lishi mumkin. Axir, muammo yoshlarning rus tilini tushunmasligi emas, balki cherkovning ko‘plab yosh a’zolari uchun rus tilida va’z qilish va ibodat qilish qiyinligidadir.

Injil tamoyillari. Yechimi yo‘qdek bo‘lib ko‘ringan ushbu muammolarning javobi aslida Muqaddas Bitikda o‘z aksini topgan: "Keksani malomat qilmang, balki otangiz kabi nasihat qiling..." (1 Tim. 5: 1-2) kabi avlodlar o‘rtasidagi munosabatlar Injil tamoyilida ko‘rinadi.

“Havoriylar kitobi”da keltirilishicha, Havoriy Pavlus kitobning to‘liq nomi “Muqaddas Havoriylar faoliyati haqida” [5:124] («Деяния святых апостолов»)- nasroniylik dini yo‘lida boshqa Havoriylardan ko‘ra ko‘proq mashaqqatli mehnat qilgan buyuk Havoriy va nasroniy ilohiyotining asoschisi bo‘lgan. U cherkovni yahudiylilik cheklovlaridan tozalab, Iso Masihning va’z-nasihatlari va ko‘rsatmalarini Yevropada ham yoyilishiga sababchi bo‘ldi. Shuning uchun u “Xalqlar Havorysi”[:48] («Апостол Народов») sharaflı maqomiga sazovor bo‘ldi. Pavlus yahudiylar oilasida tarbiya ko‘rgani uchun boshida nasroniylikning dushmani sifatida namoyon bo‘ldi. Lekin uning Damashqqa sayohati Pavlus hayotini butunlay o‘zgartirib yubordi. U ilohiy najotga erishgach, nasroniylik dini yo‘lida juda ko‘p xizmat qilgan buyuk Havoriy sifatida qadrlana boshladi. Timo‘tiy esa havoriy Pavlusning eng ishongan shogirdi va Efes cherkovining

birinchi yepiskopi edi. Havoriy Pavlus uni judayam yaxshi ko‘rar va Maktublarida uning sadoqati va zakovatini maqtab esga olgan. bo‘lgan. Yosh Timo‘tiyga yozgan maktubning 4-bobida havoriy Pavlus keksalarga nasihat, tanbeh berayotganda juda ehtiyotkorona yo‘l tutish kerakligini aytib, bu haqida turli yo‘l-yo‘riqlarni ham ko‘rsatib o‘tgan. Jumladan, (1 Tim. 5: 1-2) Injil tamoyilining ”Insonlarning munosabatlari” (“Человеческие взаимоотношения”) deb nomlangan qismida keksalarga hurmat va mehr-muruvvat ko‘rsatish haqida ko‘rsatmalar mavjud. Yoshi ulug‘ nuroniy otaxonga xuddi otaga munosabatda bo‘lishlik, keksa onaxonga esa misoli onadek mehr ko‘rsatish kerkaligi haqida ham alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Rim siyosiy arbobi, faylasuf olim Tsitseron [6:56] shunday yozgan edi:”Yigit kishining burchi kattalarga hurmatda bo‘lish va ularning maslahatlariga, bergan tavsiyalariga amal qilishdan iboratdir. Chunki yoshlar tajribasiz bo‘lganligi bois, keksalarning pand-u nasihat va o‘gitlariga muhtoj bo‘ladilar. Bu esa yoshlar uchun ayni qo‘l keladigan ehtiyojlardandir.

Qadimgi yunon faylasufi Aristotel ham o‘zining “Nikomax etikasi” (Aristotel tomonidan IV asrda yozilgan axloqiy-falsafiy asardirasarida quyidagicha yozgan:”Kattalarga hurmat va e’zoz ko‘rsatish, hamda yoshini qadrlagan holda ularga yaxshi muomalada bo‘lish, yordamini ayamaslik lozim. Bu insoniylik burchi hisoblanadi...”

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni qayd etib o‘tish lozimki, bugungi kunda oilalarda mavjud bo‘lgan muammolarning jiddiy ta’sirini e’tiborga olgan holda oila chinakam yurt poydevori bo‘lishini ta’minalash, kelajakning har tomonlama sog‘lom avlodini shakllantirish maqsadida aniq vazifalarni belgilash va ularni yechish zarurati bugungi kunning dolzarb vazifasi bo‘lib qolmoqda. Zero, oilaning mustahkamligi, tinchligi, sog‘lom va farovon bo‘lishida namunali oilalar tajribasi, mutaxassislarning maslahatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. Шубаро О.В. Христианские семейные ценности в современном обществе.- М.: Научные ведомости. Серия Философия. Социология. Право. 2018. Том 43, № 1, -С.128
2. Алюшева А.Р. Овладение репертуаром культурных жизненных сценариев как фактор развития макроструктуры автобиографической памяти // Психологич. исследования, 2012. Т.5, №25. - 22 с.
3. Бочавер А.А. Исследования жизненного пути человека в современной зарубежной психологии // Психологический журнал. 2008. № 5. С. 54–62.
4. Берн Э. Игры, в которые играют люди: психология человеческих взаимоотношений. Люди, которые играют в игры: психология человеческой судьбы. Психология человеческих взаимоотношений. М.: Эксмо-пресс, 2012. -576 с.

5. Мизинова И.А. Жизненный сценарий личности: основные подходы к рассмотрению // Известия Сарат. ун-та. Нов. сер. Сер. «Философия. Психология. Педагогика». 2013. Т. 13. Вып. 4. С. 59–64.
6. Сергиенко Е.А. Современные идеи развития в психологии // Принцип развития в современной психологии / отв. ред. А.Л.Журавлев, Е.А.Сергиенко. М.: Институт психологии РАН, 2016. С.106-107.
7. Шурбе В.З. Социокультурные доминанты межпоколенного взаимодействия // Известия Волгоградского государственного технического университета. Серия «Проблемы социально-гуманитарного знания». Вып. 10. 2012. №. 3(90) С. 53–59.